

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

2-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-2

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
SPECIAL ISSUE-2



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
№SI-2 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2025-SI-2>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук (DSc), профессор

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабирова Умида Фархадовна
доктор социологических наук (DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллович
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решает задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариева Аълохон Нуриддиновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Уразалиева Гулшода Бекпўлатовна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Сеитова Зухрагон Пиржановна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)
Абдухалилов Абдулло Абдухамитович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

ВМЕСТЕ СОЗДАВАЯ БУДУЩЕЕ СОЦИАЛЬНОЙ НАУКИ.....	6
1. Сейтов Азамат ФОРМИРОВАНИЕ ИНТЕЛЛИГЕНЦИИ КАК ЛИДЕРОВ ОБЩЕСТВЕННОГО МНЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	8
2. Xolbekov Abdug‘ani ШАХС ИЖТИМОЙИ ФАОЛИЯТИ ОМИЛЛАРИ ВА СУНЬИЙ ИНТЕЛЛЕКТ (7 “Г” ФОРМУЛАСИ ТАЛҚИНИДА).....	16
3. Farfiyev Baxramdjan, Abdupattaev Mumin Mirzo DUNYOVIYLIK VA DINIYLIK UYG‘UNLIGI, BAG‘RIKENGLIKNI TA‘MINLASH – IJTIMOIY BARQARORLIK ASOSI.....	23
4. Abduraxmonova Manzura KAM TA‘MINLANGAN OILALAR TUSHUNCHASINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	32
5. G‘afforova Mavlyuda SIYOSIY YETAKCHINING SHAKLLANISHI VA UNDA IMIJNING O‘RNI.....	40
6. Seitova Zuhra AL-FOROBIIY: FALSAFA, AXLOQ VA SIYOSIY FIKRLAR.....	48
7. Alikariyeva A‘loxon TA‘LIM SIFATI TALABALAR NIZOHIDA: SOTSIOLOGIK TADQIQOT NATIJALARI.....	53
8. Kamalova Khatira QARAQALPAQ XALQÍ HAYAL-QÍZLARÍNÍN JÁMIETLIK-SIYASIY BELSENDILIGI.....	60
9. Якубов Ильдар ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ РЕГУЛИРОВАНИЯ ПРИМЕНЕНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В КНР.....	72
10. Burxanov Xusniddin RAQAMLI JAMIYATDA AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA‘MINLASHNING IJTIMOIY NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	79
11. Hojiyev Zavqiddin IJTIMOIY XAVFSIZLIK: ILMIY-NAZARIY VA SOTSIOLOGIK TAHLIL.....	88
12. Axmedova Feruza TIBBIYOT IJTIMOIY INSTITUT SIFATIDA.....	96
13. Akramov Xusan ISLOMIY QADRIYATLAR VA IJTIMOIY ME‘YORLAR: IMOM AL-BUXORIY HADISLARINING SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	106
14. Axmedov Qaxramon IJTIMOIY XODIMLARNI TAYYORLASHDA PROFESSIONAL TA‘LIMNI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY JIHA TLARI.....	112
15. Raximova Shaxnoza AXBOROT-KUTUBXONA FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING INSTITUTSIONAL ASOSLARI.....	123
16. Xaydarova Javohira RAHBAR AYOLLARLARNING BOSHQARUV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARINI JORIY ETISH.....	131

17. Kamilov Farxod INTERNAT MUASSASALARINI NOINSTITUTIONALLASHTIRISH: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR.....	142
18. Razzakova Nargis MUSTAHKAM OILAVIY MUNOSABATLARNI SHAKLLANTIRISHDA MILLIY QADRIYATLARNING O'RNI VA TRANSFORMATSIYALASHUV JARAYONI.....	150
19. Axmedova Ra'no O'ZBEKISTON YOSHLARI FAROVONLIGINING TAHLILI: JAHON QADRIYATLARI TADQIQOTI (WORLD VALUES SURVEY) MA'LUMOTLARI ASOSIDA.....	157
20. Мирзаева Шахноза ЖЕНСКОЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВО В УСЛОВИЯХ РЕФОРМ: РЕЗУЛЬТАТЫ СОЦИОЛОГИЧЕСКОГО ИССЛЕДОВАНИЯ.....	165
21. Вахидова София ЭВОЛЮЦИЯ ГЕНДЕРНЫХ РОЛЕЙ И РОЛЬ ОБРАЗОВАНИЯ: МЕЖПОКОЛЕНЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ОТ БЭБИ-БУМЕРОВ ДО ПОКОЛЕНИЯ X.....	174
22. Bozorova O'limaxon IJTIMOIY KAPITALNING MINTAQAVIY O'ZIGA XOSLIKLARI: SHARQ VA G'ARB TAJRIBASI.....	183
23. Ruyiddinova Aisha INSON ONGIDAGI AXBOROT STEREOTIPLARINING ISHONCHLI AXBOROTGA TA'SIRI.....	195
24. Tursunboyev Jahongir SOTSIOLOGIY ILMIY MAKTABLARNING ISTIQBOLLI YOSH RAHBAR KADRLAR TAYYORLASH TIZIMIGA OID NAZARIY YONDASHUVLARI.....	201
25. Raximbayeva Oftobxon ZAMONAVIY RAXBARLARDA KASBIY VA IJTIMOIY KOMPETENSIYALARNI TAKOMILLASHTIRISH.....	208
26. Sharopov Sadridin INTELLEKTUAL SALOHİYAT – YOSH RAHBARLAR BOSHQARUV FAOLIYATI SAMARADORLIK OMILI SIFATIDA.....	215
27. Burxanov Xusniddin RAQAMLI JAMIYATNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHIDA ALGORITMIK YONDASHUVLAR.....	224
28. Mamaziyaeva Nargiza O'ZBEKISTON VA TURKIYADA SOG'LOM TURMUSH TARZI VA OQILONA OVQATLANISH AMALIYOTINING QIYOSIY TAHLILI.....	232
29. Murodova Fotimabonu, Axmedova Feruza O'ZBEKISTONDA RAQAMLI SOTSIOLOGIYA: MILLIY HOLAT VA XALQARO TAJRIBALAR.....	238

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES


Tursunboyev Jahongir,

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat

Universiteti I-bosqich tayanch doktoranti

shodiyorovich1202@gmail.com

SOTSIOLOGIK ILMIY MAKTABLARNING ISTIQBOLLI YOSH RAHBAR KADRLAR TAYYORLASH TIZIMIGA OID NAZARIY YONDASHUVLARI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.18354998>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada sotsiologik ilmiy maktablarning yetakchilikni o'rganuvchi nazariy yondashuvlari, yosh rahbar kadrlar tayyorlashda ularning tutgan o'rni, zamonaviy jamiyatda yoshlar orasida yetakchilik kompetensiyalarini shakllantirishning dolzarbligi hamda zamonaviy ijtimoiy-pedagogik muhitdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida R.F.Beylz, Fred Fidler, G.Feyrxolm, A.E.Podobin, Yu.S.Dubro kabi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan nazariyalar asosida istiqbolli yosh rahbar kadrlarni tayyorlashga oid asosiy yondashuvlar aniqlangan. Muallif yetakchilikni faqat strukturaviy yoki lavozimiy hodisa sifatida emas, balki shaxsiy qadriyatlar, ijtimoiy faollik va o'zaro subektiv munosabatlar tizimi sifatida tahlil qiladi. Maqolada yoshlar bilan ishlashda qo'llaniladigan samarali pedagogik va psixologik sharoitlar, shuningdek, o'zini o'zi boshqarish, trening, rol o'yinlar, sotsiometrik tahlil kabi metodlar samaradorligi yoritilgan. Shuningdek, maqolada hududiy yoshlar siyosatining dolzarb vazifalari, yoshlar hukumatlari va ta'lim muassasalari negizida yetakchilikni rivojlantirish texnologiyalari misolida amaliy jihatlar ham ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari yosh rahbar kadrlarni tayyorlashda kompleks va tizimli yondashuv zarurligini asoslaydi.

Kalit so'zlar: yosh yetakchilar, sotsiologik ilmiy maktablar, rahbar kadrlar tayyorlash, nazariy yondashuvlar, pedagogik sharoitlar, yetakchilik kompetensiyasi, qadriyatga asoslangan liderlik, ijtimoiy faollik.

Турсунбаев Джахангир,

Базовый докторант

1 курса Самаркандского государственного

Университета имени Шарафа Рашидова

shodiyorovich1202@gmail.com

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ СОЦИОЛОГИЧЕСКИХ НАУЧНЫХ ШКОЛ К СИСТЕМЕ ПОДГОТОВКИ ПЕРСПЕКТИВНЫХ МОЛОДЫХ РУКОВОДЯЩИХ КАДРОВ

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются теоретические подходы социологических научных школ к изучению лидерства, их роль в подготовке молодых руководящих кадров, актуальность формирования лидерских компетенций среди молодежи в современном обществе, а также

значимость этого процесса в современном социально-педагогическом контексте. В ходе исследования были выявлены основные подходы к подготовке перспективных молодых руководителей, основанные на теориях таких ученых, как Р.Ф.Бейлз, Фред Фидлер, Г.Фейрхолм, А.Е.Подобин, Ю.С.Дубров. Автор рассматривает лидерство не только как структурное или должностное явление, но и как систему личных ценностей, социальной активности и взаимных субъективных отношений. В статье освещается эффективность педагогических и психологических условий, применяемых в работе с молодежью, таких как самоуправление, тренинги, ролевые игры, социометрический анализ. Кроме того, в статье рассмотрены практические аспекты развития лидерства на примере актуальных задач региональной молодежной политики, молодежных правительств и образовательных учреждений. Результаты исследования обосновывают необходимость комплексного и системного подхода в подготовке молодых руководящих кадров.

Ключевые слова: молодые лидеры, социологические научные школы, подготовка руководящих кадров, теоретические подходы, педагогические условия, лидерская компетентность, ценностно-ориентированное лидерство, социальная активность.

Tursunboyev Jahongir,

PhD student at Samarkand State University
named after Sharof Rashidov
shodiyorovich1202@gmail.com

THEORETICAL APPROACHES OF SOCIOLOGICAL SCIENTIFIC SCHOOLS TO THE SYSTEM OF TRAINING PROMISING YOUNG LEADERS

ABSTRACT

This article analyzes the theoretical approaches of sociological scientific schools in studying leadership, their role in the training of young managerial personnel, the relevance of developing leadership competencies among youth in modern society, and the significance of these processes within the contemporary socio-pedagogical environment. The study identifies key approaches to training promising young leaders based on the theories developed by scholars such as R.F.Bales, Fred Fiedler, G.Fairholm, A.E.Podobin, and Yu.S.Dubro. The author examines leadership not only as a structural or positional phenomenon but also as a system of personal values, social activity, and mutual subjective relationships. The article highlights the effectiveness of pedagogical and psychological conditions used in working with youth, including methods such as self-governance, training, role-playing games, and sociometric analysis. Furthermore, the article explores practical aspects through the example of regional youth policy tasks, youth governments, and leadership development technologies within educational institutions. The findings of the study substantiate the necessity of a comprehensive and systematic approach to the training of young managerial personnel.

Keywords: young leaders, sociological scientific schools, training of managerial personnel, theoretical approaches, pedagogical conditions, leadership competence, value-based leadership, social activity.

KIRISH

Sotsiologiyada istiqbolli yosh rahbar kadrlar tayyorlash masalalari har doim dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi. Bu jarayon nafaqat ijtimoiy munosabatlarda, balki jamiyatning barqaror rivojlanishi, ma'naviy va intellektual salohiyatining yuksalishida ham muhim rol o'ynaydi. Bugungi kunda yoshlar orasida liderlik salohiyatini aniqlash, rivojlantirish va ularni ijtimoiy hayotga faol jalb qilish dolzarb ijtimoiy ehtiyojga aylangan. Aynan istiqbolli yosh rahbarlarning yetishib chiqishi jamiyatda yangilik, yangicha qarash va samarali boshqaruv madaniyatining shakllanishiga olib keladi.

Yosh rahbarlar bilan ishlashda sotsiologik ilmiy maktablarning nazariy yondashuvlari muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu yondashuvlar jamiyatning ijtimoiy strukturasi, yetakchilik

mexanizmlarini va shaxsiy rivojlanish omillarini kompleks tahlil qilish imkonini beradi. Turli ilmiy maktablar yoshlarning liderlik kompetensiyasini shakllantirishga oid o'ziga xos metodologik asoslar, pedagogik va ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitlar, shuningdek, institutlararo hamkorlik mexanizmlarini ilgari surgan.

Sotsiolog olimlar yetakchilikni faqat individual fazilatlar majmui sifatida emas, balki institutsional va ijtimoiy-siyosiy jarayonlar bilan bevosita bog'liq hodisa sifatida ko'rib chiqadi. Shu sababli yosh liderlarni tayyorlash masalasi ko'plab ilmiy maktablar tomonidan turli nazariyalar orqali tadqiq etilgan.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda qiyosiy sotsiologik tahlil, tarixiy-nazariy yondashuv, kontent-analiz va induktiv-deduktiv tahlil usullaridan foydalanildi. Turli sotsiologik ilmiy maktablarning istiqbolli yosh rahbarlar tayyorlashga oid nazariy qarashlari o'rganildi va ularning metodologik asoslari tahlil qilindi. Tadqiqot doirasida qadriyatga asoslangan liderlik konsepsiyasi, shaxsiy va institutsional omillar uyg'unligida yondashuvlar ishlab chiqildi. Sharq va G'arb olimlarining sotsiologik merosi zamonaviy talablar nuqtayi nazaridan qayta tahlil qilinib, yosh liderlik kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar shakllantirildi. Maqola nazariy tahlil bilan bir qatorda real tajribalar asosida tahlil etildi.

Tahlil va natijalar. Mazkur maqolada biz dunyo miqyosidagi yirik sotsiologik ilmiy maktablar – jumladan, AQSh, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Rossiya va O'zbekiston sotsiologik maktablari tomonidan ilgari surilgan yosh rahbar kadrlar tayyorlashga oid nazariy qarashlarni qiyosiy sotsiologik tahlil qilamiz.

Sotsiologik ilmiy maktablar va ularning liderlik nazariyasiga qo'shgan hissasi. Sotsiologiyada yetakchilik fenomenini o'rganishga oid ko'plab ilmiy maktablar mavjud. Ularning har biri jamiyatdagi liderlik jarayonlarini turli yo'nalishlardan yoritib beradi. Quyida ayrim asosiy maktablar va ularning yondashuvlari keltiriladi:

Amerika pragmatik maktabi (J.Dyui, J.Mid, G.Blumer) [1]. Bu maktab vakillari jamiyatda ijtimoiy rol va liderlikning shakllanishini shaxsiy tajriba, ijtimoiy o'zaro ta'sir va faoliyat orqali tushuntiradi. Ularning fikricha, liderlik – bu ijtimoiy rollarni o'zlashtirish va guruh ichida faoliyatni muvofiqlashtirish orqali yuzaga chiqadi. Yosh rahbarlar ijtimoiy muhit orqali o'zining liderlik kompetensiyalarini shakllantiradi.

Evropa ijtimoiy institut maktabi (M.Veber) [2]. Veber yetakchilikni harakat sub'ektining legitim hokimiyati sifatida ko'radi. Uning "an'anaviy", "karizmatik" va "rasional-huquqiy" liderlik shakllari zamonaviy yosh liderlar tayyorlashda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, karizmatik liderlik tushunchasi bugungi yosh liderlarning shaxsiy brendini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

Struktural-funksional yondashuv (T.Parsons, R.Merton) [3]. Bu yondashuv doirasida liderlik ijtimoiy tizimdagi funksional rol sifatida talqin qilinadi. Yoshlar orasida rahbarlik salohiyatini aniqlash – jamiyatdagi ijtimoiy rollarni to'g'ri taqsimlashni ta'minlovchi mexanizmdir. Rasmiy va norasmiy guruhlar ichida liderlarning funksional vazifalari belgilanadi.

Quyidagi jadvalda esa ushbu ilmiy maktablar vakillari, ular faoliyat yuritgan yillar hamda ilgari surilgan nazariy yondashuvlar bayon etilgan bo'lib, ular orqali yosh rahbarlarni shakllantirishning nazariy asoslari, metodologik yondashuvlari va amaliy mexanizmlari o'rganiladi (1-jadval).

1-jadval

№	Ilmiy maktablar	Ilmiy maktab namoyondalari	Yillar	Ilgari surilgan nazariyalar
1	Sharq sotsiologiya ilmiy maktabi	Al-Buxoriy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ibn Xaldun, Bahouddin Naqshbandiy, Alisher Navoiy	873-1501	Odamlarni turli belgilarga qarab guruhlariga bo'lishi: kishilarning diniy mazhabiga, millatiga, irqiga qarab emas, balki tabiiy xususiyatlariga, qobiliyatlariga, avvalo aqliy iqtidoriga hamda ilmlarni o'rganish, hayotiy tajriba to'plash jarayonida orttirgan bilim va ko'nikmalariga katta ahamiyat berishi, o'zaro yordam, dono boshqaruv,

				boshliq va xodimning iyerarxik munosabatlarida meyor, farosat, jamiyat rivojlanishida bidava (ibtidoiylik) va xidara (sivilizatsiya) bosqichlari; to'g'ri mehnat taqsimoti; inson omilini hisobga olish; qatlamlarga bo'linish, mijozning roziligiga asosiy ijtimoiy va ma'naviy o'lchov sifatida qarash, holatni to'g'ri baholay olish; tashabbuskorlik, halollik, jamoaga foydali bo'lish ruhida tarbiyalash g'oyasi; aql va tafakkurning bosh tamoyili sifatida belgilanishi [4].
2	Fransiya sotsiologiya ilmiy maktabi	O.Kont, E.Dyurkgeym, G.Tard, G.Lebon, Moss, L.Levi-Bryul, S.Bugle, J.Davi, P.Lapi, P.Gers, M.Xalbvaks	1843-1904 1898-1913	Jamiyatni ilmiy asosda boshqarish zarurati, ijtimoiy muvozanatga erishish uchun yoshlar ongini ilmiy tafakkurga yo'naltirish, pozitivizm, ijtimoiy birdamlik konsepsiyasi; mehnat taqsimoti va axloqiy tarbiya orqali yoshlar jamiyatga integratsiyalash, boshqalarga ta'sir ko'rsatish, boshqalarni ergashtirish san'ati jamoaviylik asosida ijtimoiy institutlarni tashkil qilish [5].
3	Avstriya-Germaniya sotsiologiya ilmiy maktabi	G. Zimmel, L.Gumplovich, G.Ratsenxofer, F.Tennis, M.Veber, G.Zombart, L.Vize, 3.Freyd	1838-1900	Fakt va hodisalarning umumiy qoidalarini ishlab chiqish; ijtimoiy harakatni ratsionallashtirish; sotsial stratifikatsiya, aholi ijtimoiy qatlamlarini turli maqom guruhlariga bo'lish mezoniga tayanish [6].
4	Buyuk Britaniya sotsiologiya ilmiy maktabi	G.Spenser, A.Marshall, E.Galley, G.King, V.Petti, Ch.But, Beatrisa va Sidney Vebb, P.Tompson, M.Rid	1820-1903	Evolyutsiya nazariyasi; integratsiya va differentsiatsiya birligi; boshqaruv institutlari tirik organizm kabi o'sib borishi va rivojlanishi, tuzilishi jihatidan farqlanishi, o'z vazifalarini belgilashi va bajarishi, mustaqil mavjud bo'la oladigan qismlarga bo'linishi; inson kapitaliga sarmoya kiritish [7].
5	Amerika sotsiologiya ilmiy maktabi	P.Sorokin, E.Meyo, T.Parsons, A. Maslou, R.Merton, R.Park, E.Berdjess, F.Znanetskiy	1841-1913 1855-1931 1863-1931	Insoniy munosabatlar nazariyasi; sotsial mobillik, ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi chegaralar; jamiyat insonning farovon yashashi uchun o'z-o'zini band qilishiga sharoit yaratib berish; istiqbolli yosh rahbar kadrlar tayyorlash tizimini sotsiologik modellashtirish, strategik maqsadlarini belgilashda tizimli yondashuv, liberalizm, inson huquqlari [8].
6.	Rossiya Federatsiyasining sotsiologiya ilmiy maktabi	M.M.Kovalevskiy, G.V.Plexanov, N.I.Ziber V.Solovyev, N.Berdyayev, G.V.Osipov, A.A.Radugin	1987, 1997	Ijtimoiy qadriyatlar, meyorlar va xulq-atvor namunalari bilan belgilangan ijtimoiy rollarni bajarish asosida maqsadlarga birgalikda erishish.
7.	O'zbekiston milliy sotsiologiya maktabi	M.Bekmurodov, A.Qahharov, A.Xolbekov, A.Umarov, T.Matiboyev, SH.Sodiqova, O.Abduazimov, B.Farfiyev	1992 2022	Jamoatchilik fikri, konsensus, kompromiss, mentalitet, tafakkur tarzi, ma'rifatli jamiyat, inklyuzivlik, emerjentlik, eskapizim, farosat ilmi, insonning yuksak fazilati asosan uning mustaqil fikrga egaligi, ish faoliyati va yashash tarzi bilan belgilanishi; insonni nafaqat jismoniy va ma'naviy fazilatlarini, balki uning turmush tarzi moddiy farovonligi bilan ham bog'liqligi; jamiyat demokratik taraqqiyotining ma'naviy-axloqiy qadriyatlar bilan uyg'unligi xalqimizning fazilatlarini, sharqona tafakkuri va turmush tarzidan kelib chiqishi; aholida mutoola

				madaniyatini oshirish orqali ularning dunyoqarashini o'zgartirish; ijtimoiy adolat; yosh rahbar kadrlarni davlat tomonidan ijtimoiy qo'llab-quvvatlanishi, boshqaruvning zamonaviy mexanizmlarini amalga oshirilishi, shuningdek, ma'naviy-axloqiy qadriyat hamda milliy an'analarning turmush tarzidagi ijtimoiy mavqeining yuksalishi [9].
--	--	--	--	--

Istiqbolli yosh rahbar kadrlar tayyorlash tizimiga oid sotsiologiya ilmiy maktablarini o'rganar ekanmiz, bunda, avvalo Sharq sotsiologiya ilmiy maktabini e'tirof etish joiz. Bu borada al-Buxoriy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ibn Xaldun, Bahouddin Naqshbandiy, Alisher Navoiylarning shoh asarlarida jamiyatni sog'lom axloqiy mezonlar asosida barpo etish, yoshlarni hadislardagi ijtimoiy tartib va qadriyatlarga asoslangan holda tarbiyalash, halollik, adolat, javobgarlik, ishonchlik, odamlarni turli belgilarga qarab guruhlarga bo'lishi:

kishilarning diniy mazhabiga, millatiga, irqiga qarab emas, balki tabiiy xususiyatlariga, qobiliyatlariga, avvalo aqliy iqtidoriga hamda ilmlarni o'rganish, hayotiy tajriba to'plash jarayonida orttirgan bilim va ko'nikmalariga katta ahamiyat berishi, o'zaro yordam, dono boshliq, tenglik (Forobiy);

jamiyat rivojlanishida bidava (ibtidoiylik) va xidara (sivilizatsiya) bosqichlari (Ibn Xaldun); to'g'ri mehnat taqsimoti (Beruniy);

inson omilini hisobga olish, qatlamlarga bo'linish, mijozga qarab baholash (Ibn Sino); yoshlarni ilmu hikmat asosida ijtimoiy rahbarlikka yo'naltirish g'oyasi mavjud (Buxoriy);

tashabbuskorlik, halollik, jamoaga foydali bo'lish ruhida tarbiyalash g'oyasi (Naqshbandiy); kasbi komillik, aql, intuitsiya va tafakkur nisbati, ekstropolyatsiya (Navoiy) nazariyalarini ilgari surishgan.

Yosh rahbar kadrlarni tayyorlashda qadriyatga asoslangan yondashuv. Zamonaviy sotsiologik tadqiqotlarda liderlik endi faqat texnik kompetensiyalar emas, balki shaxsiy qadriyatlar, ijtimoiy mas'uliyat va axloqiy pozitsiya bilan bog'liq jarayon sifatida talqin qilinmoqda. Bu qadriyatga asoslangan yondashuv quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Yetakchilikni "harakat" sifatida tushunish;
- Liderni "jamiyatga xizmat qiluvchi shaxs" sifatida ko'rish;
- Shaxsiy ma'naviyat, axloq va jamoaviy manfaatlar asosida qarorlar qabul qilish.

Ushbu yondashuv yosh rahbar kadrlarni tayyorlashda nafaqat amaliy, balki ma'naviy-psixologik tayyorgarlikni ham muhim deb biladi.

Pedagogik va ijtimoiy shart-sharoitlar. Yosh liderlar salohiyatini ochish uchun ularni quvvatlovchi pedagogik sharoitlar zarur:

- Faoliyatga asoslangan metodlar (treninglar, rolli o'yinlar, loyihalar);
- Ijtimoiy faollik uchun maydonlar yaratish (klublar, kengashlar, forumlar);
- O'zini-o'zi boshqaruv tizimlarida ishtirok (stipendiya, qabul komissiyalari, talabalar kengashlari);
- Mentorlik va ustozlik institutini rivojlantirish;
- Faoliyatning monitoringi va refleksiya.

Bu sharoitlar orqali yoshlar ijodkorlik, tashabbus, mas'uliyat va ijtimoiy faollik kabi yetakchilik kompetensiyalarini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'lalilar.

Sotsiologik ilmiy maktablar asosida ishlab chiqilgan dasturlar: tajribalar va misollar. Yuqoridagi nazariy asoslar real amaliyotda quyidagi dasturlar orqali ro'yobga chiqarilmoqda:

a) "Karera laboratoriyasi" (Rossiya tajribasi) [10]. 2014-yildan buyon faoliyat yuritayotgan mazkur loyiha yoshlarni real kasbiy muhitda o'qitishga yo'naltirilgan. "Work-based learning" tamoyiliga asoslanib, liderlik va kasbiy kompetensiyalarni birgalikda rivojlantirishga xizmat qiladi.

b) Ulyanovsk viloyatidagi yoshlar kengashlari. Hududiy ta'lim muassasalarida tashkil etilgan kengashlar yoshlarni boshqaruvga jalb etish, ular orqali o'zaro mas'uliyat va liderlikni shakllantirishni maqsad qilgan. Bu tajriba ijobiy natijalar bergan.

c) J.Kelli metodikasi asosida "belgilangan rol" mashg'ulotlari. Talabalar o'z shaxsiy konstruktlarini baholaydi, qayta shakllantiradi va o'zgarishlar kiritadi. Bu orqali yangi qadriyatlar tizimi shakllanadi va yetakchilik salohiyati rivojlanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Zamonaviy sotsiologik ilmiy maktablar tomonidan taklif etilgan nazariy yondashuvlar asosida istiqbolli yosh rahbar kadrlarni tayyorlash jarayoni aniq yo'naltirilgan tizimga aylanmoqda. Yetakchilik – bu faqat kasbiy emas, balki ijtimoiy-ma'naviy mas'uliyatdir. Shuning uchun, yosh liderlar jamiyatda faol rol o'ynashi, o'zining ijtimoiy pozitsiyasini anglab yetishi va boshqalarni ilhomlantira olishi lozim. Bu yo'lda sotsiologik yondashuvlar, amaliy dasturlar va zamonaviy texnologiyalar talab etiladi.

1. **Yosh liderlik fenomeni** – ijtimoiy tizimning dinamik va barqaror rivojlanishida muhim omillardan biri bo'lib, uni shakllantirishda sotsiologik yondashuvlar hal qiluvchi rol o'ynaydi.
2. **Sotsiologik ilmiy maktablar** (funktsionalizm, interaksionizm, institutsionalizm, konflikt nazariyalari) tomonidan ilgari surilgan yetakchilikka oid konsepsiyalar yosh rahbarlarni tayyorlashda nazariy asos va amaliy yondashuvlarni taqdim etadi.
3. Qadriyatga asoslangan liderlik yondashuvi – **sotsiologik qadriyatlar tizimi** (axloq, mas'uliyat, jamoaviylik, fuqarolik faolligi) orqali yoshlarning ijtimoiy ongini shakllantirishga xizmat qiladi.
4. Raqamli transformatsiya va yoshlar orasidagi **ijtimoiy tarmoq faolligi**, yangi avlod liderlik modelining shakllanishiga ijtimoiy maydon yaratadi, bu esa sotsiologik tahlil va monitoringni talab qiladi.
5. Sotsiologik tadqiqotlar orqali yoshlar orasida **ijtimoiy poyoniylik, ijtimoiy mobillik** hamda **status motivatsiyasi** aniqlanadi, bu esa liderlik kompetensiyalarini rivojlantirish strategiyasini aniqlashda asos bo'ladi.

Olib borilgan tadqiqotlarimizdan olingan xulosalar asosida quyidagi amaliy taklif va tavsiyalarni ilgari suramiz

1. **Yosh liderlikning sotsiologik modeli** ishlab chiqish. Unda ijtimoiy rollar, qadriyatlar, motivatsiya, ta'sir doirasi va kommunikatsion vositalar integratsiyalashgan holda tavsiflash.
2. Oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida "**Yosh liderlik sotsiologiyasi**" fani joriy qilish, sotsiologik nazariyalar asosida yetakchilik kompetensiyalari chuqur o'rganish.
3. Sotsiologik monitoring va baholash tizimlari orqali yosh rahbarlarning ijtimoiy ta'sir doirasi, ijtimoiy kapitali, tarmoq faoliyati va ijtimoiy maqom dinamikasi muntazam o'rganib borish.
4. Turli hududlardagi yosh liderlarning ijtimoiy portretini yaratish orqali ularning **mintaqaviy ijtimoiy farqlarini** aniqlash va shu asosda mahalliy liderlik strategiyalarini ishlab chiqish.
5. "**Sotsiologik eksperiment**" shaklida universitetlar va yoshlar tashkilotlarida pilot loyihalar tashkil etilib, real sharoitda liderlik salohiyati, jamoaviy boshqaruv va qaror qabul qilish mexanizmlari sinovdan o'tkazish.
6. Har yili "**Yosh liderlar ijtimoiy forumi**" o'tkazilib, unda sotsiologlar, psixologlar, siyosatshunoslar va amaliyotchilar ishtirokida yosh liderlikning ijtimoiy tahlili, dolzarb muammolari va istiqbollari muhokama qilish.
7. O'zbekistonda yetishib chiqayotgan yosh liderlar haqidagi **ijtimoiy ma'lumotlar bazasi (sotsiologik reyestr)** shakllantirish, bunda ularning faoliyati, ta'limi, loyihalari, ijtimoiy ta'siri va rivojlanish dinamikasi aks ettiriladi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Herbert Blumer (1969). Symbolic Interactionism: Perspective and Method. New Jersey: Prentice-Hall, Inc. p. vii. ISBN 9780138799243.
2. Вебер М. Хозяйство и общество. – М.: ГУ ВШЭ, 2020.

3. Tolkat Parsons “The Structure of Social Action” (1937), Robert Merton's “Social Theory and Social Structure” (1949)
4. Imom Al-Buxoriy “Al-Jom’ al-Sahih” Toshkent: Sharq nashriyoti, 1991, 2. Al-Farobiy (Forobiy) “Al-Madina al-Fadila” (Ideal davlat). Toshkent: Sharq nashriyoti, 2005, 3. Al-Beruniy. “Hindiston haqidagi ilmiy tadqiqot” 1965-yil o‘zbek tilidagi tarjimasini O‘zbekiston Fanlar akademiyasi.
5. Огюст Конт (1798 – 1857). «Курс позитивной философии» 1830 – 1842 гг., Дюркгейм Э. О разделении общественного труда. Метод социологии.–Москва: 1990; «Правила социологического метода» (1895) Л. Леви-Брюль “Первобытное мышление” Франция, 1910.
6. Zimmel G. Sotsiologiya. Germaniya, 1908 y. L.Gumplovich. Sotsiologiya asoslari. Germaniya, 1884 yil. F.Tennis. Jamoat va jamiyat. Germaniya. 1887 yil. Вебер М. Хозяйство и общество. – М.: ГУ ВШЭ, 2020.
7. Спенсер Герберт/И.С.Нарский//Большая советская энциклопедия: [в 30 т.]/гл. ред. А.М.Прохоров. – 3-е изд. – М.: Советская энциклопедия, 1969-1978., Маршалл А. Принципы экономической науки. Пер. с англ. – М., Издательская группа «Прогресс», 1993. – 23 л.
8. Pitirim Sorokin. Modern Historical and Social Philosophies. – New York: Dover Publications, 1963., Мэйо, Элтон: [арх. 15 июня 2024]/Константинов А.В.//Монголы – Наноматериалы [Электронный ресурс]. – 2012. – С.589. – (Большая российская энциклопедия: [в 35 т.]/ гл. ред. Ю.С.Осипов; 2004-2017, т. 21). – ISBN 978-5-85270-355-2., Parsons T. The Social System. – Glencoe: Free Press, 1951
9. Bekmurodov M. Zamonaviy boshqaruv sotsiologiyasi. Monografiya. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. – B. 52-53.; Umarov A.A. Ijtimoiy-madaniy taraqqiyotni ta’minlash va komil inson shaxsini shakllantirishda mutolaaning roli. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi Davlat madaniyat instituti, 2005. – B.18.; Sodiqova Sh.M. Jamiyatni modernizatsiyalash jarayonida keksalarni ijtimoiy himoyalashning sotsiologik tahlili. Sotsiologiya fanlari bo‘yicha fan doktori diss. avtoref. – Toshkent: O‘zMU, 2016. – B. 18.; Xolbekov A.J. O‘zbekistonda jamiyatning demokratlashuvi jarayonida ijtimoiy adolatni amalga oshirish muammolari (siyosiy-sotsiologik tahlil). – Toshkent: O‘RPHDJQA, 2001. – B. 32.; Matibayev T.B. O‘zbekistonda davlat va jamiyat hayotining demokratlashuvi jarayonida ijtimoiy hamkorlik tizimini rivojlantirish omillari. Sots. f. d. (DSc) diss. – Toshkent: O‘zMU, 2017. – B. 172.; Abduazimov O. Axborotlashgan jamiyatda jamoatchilik fikri monitoringini ta’minlashda ommaviy kommunikatsiyalar sotsiologiyasining o‘rni. Monografiya. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2016. – 352 b.
10. https://labvs.ru/company/career?utm_source=chatgpt.com.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000